THE IMPORTANCE OF MARKETING COMMUNICATIONS IN THE SERVICES SECTOR	895
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH — ICHKI TALABNI RAG'BATLANTIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI.....	900
Mustafoev G'olib Sultonmurodovich, Abruyev Abdumalik Oynazarovich	
BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA ULARNI QO'LLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	906
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
KORXONADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	911
Salimova Husniya Rustamovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: BUXORO VILOYATI MISOLIDA.....	918
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MOLIVAVIY MAHSULOTLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI.....	926
Rasulova Dilfuza Valiyevna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O'SISH VA MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING DINAMIKASI	932
Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
FOYDALANUVCHI SADOQATINI SHAKLLANTIRISHNING MARKETING VA NEYROMARKETING MEXANIZMI SIFATIDA GEYMIKATSIYA ELEMENTLARINI QO'LLASH: DODO PIZZA MOBIL ILOVASI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL	937
Yuldashev Jamshid Abrarovich, Daminova Nilufar Bahrom qizi	



KORXONADA XODIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	945
Sadriddinova Sevinchxon Sadriddin qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	948
Murodova Zilola Asatulla qizi	
KUZATILMAYDIGAN IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, SHAKLLARI, TURLARI VA YUZAGA KELISH OMILLARI.....	952
Abdullayev Shavkat Nasriddinovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	959
Yaqubova Nodira Olim qizi	
РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	964
Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срождиддинова Зарина Хайриддиновна	
KOMPANIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISH AHAMIYATI.....	970
Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI	977
Xudayberdiyev Otabek Absalomovich	
HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUTSIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI	983
Bekchanov Davron Masharipovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O'RNI.....	988
Anvarova Lobarxon	
TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT	992
J.Kamalova	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	999
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELİ	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdulfattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich	
IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL	1173
Qo'ziyoyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI"	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	



KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil tadqiqotchisi, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda raqobat razvedkasidan foydalanishning xorijiy mamlakatlar tajribasi ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotda global korxonalarda raqobat razvedkasi funksiyasining institutsional rivojlanish bosqichlari, uning markazlashgan va integratsiyalashgan boshqaruv tizimiga aylanish jarayoni statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, CI tizimining strategik qarorlar qabul qilishga ta'siri, raqamli texnologiyalar (OSINT, Data Mining) bilan uyg'unlashuvi hamda zamonaviy "integrallashgan razvedka" modeli xususiyatlari tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqobat razvedkasi korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, bozor o'zgarishlariga moslashuvchanlikni ta'minlash va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim strategik vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: raqobat razvedkasi, korxonalar, korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy xavfsizligi, xavf-xatarlar, OSINT.

Abstract. This article analyzes the experience of foreign countries in using competitive intelligence to ensure the economic security of an enterprise on a scientific basis. The study covers the stages of institutional development of the competitive intelligence function in global enterprises, the process of its transformation into a centralized and integrated management system based on statistical data. It also analyzes the impact of the CI system on strategic decision-making, its integration with digital technologies (OSINT, Data Mining), and the features of the modern "integrated intelligence" model. The results show that competitive intelligence is an important strategic tool for increasing the competitiveness of enterprises, ensuring flexibility to market changes, and strengthening economic security.

Key words: competitive intelligence, enterprises, economic and financial security of enterprises, risks, OSINT.

Аннотация. В данной статье на научной основе анализируется опыт зарубежных стран в использовании конкурентной разведки для обеспечения экономической безопасности предприятия. Исследование охватывает этапы институционального развития функции конкурентной разведки в глобальных предприятиях, процесс ее трансформации в централизованную и интегрированную систему управления на основе статистических данных. Также анализируется влияние системы конкурентной разведки на принятие стратегических решений, ее интеграция с цифровыми технологиями (OSINT, Data Mining) и особенности современной модели «интегрированной разведки». Результаты показывают, что конкурентная разведка является важным стратегическим инструментом повышения конкурентоспособности предприятий, обеспечения гибкости к изменениям рынка и укрепления экономической безопасности.

Ключевые слова: конкурентная разведка, предприятия, экономическая и финансовая безопасность предприятий, риски, OSINT.

KIRISH

Jahonda 21-asrga kelib barcha yirik kompaniyalarda marketingning zamonaviy vositalaridan biri bo'lib raqobat razvedkasi xizmat qilmoqda. Raqobat razvedkasi hozirgi kunda mamlakatimizda ham alohida dolzarblik



kasb etdi. “Biznesdagi ko‘plab innovatsion va yangi g‘oyalar kabi, ishbilarmonlar dunyosi tomonidan raqobat razvedkasining umumiy tarzda qabul qilinishi yetarlicha sekin yuz berdi. Raqobat razvedkasining o‘zi ham sekin rivojlandi, ammo oxirgi bir necha yil ichida oldinga keskin qadam tashladi”.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobat razvedkasi muammosining nazariy asoslari, uning iqtisodiy mohiyati hamda ilmiy-metodologik jihatlarini xorijiy iqtisodiy maktablar doirasida keng o‘rganilgan. Xususan, hududiy joylashuv nazariyasi, bozor makoni va ishlab chiqarishni optimallashtirish masalalari Talaoui Y. [2], Nyanga C. [3] kabi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Keyinchalik raqobat muhiti, transmilliy biznes faoliyati va ishlab chiqarish tarmoqlarining global integratsiyasiga doir masalalar Fahey L. [4], Dun Markusen, Jon Danning va boshqa tadqiqotchilar ishlarida rivojlantirilgan. Ushbu yondashuvlar raqobat muhitini tizimli tahlil qilish hamda korxonalarning strategik qarorlarini axborot asosida shakllantirishga xizmat qiladigan ilmiy zaminni yaratdi.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida Бещмков М.А. [6], Isayeva N.A. [7], Serebryakova T.Yu. [8], Doronin A. [9], Lemke G.E. [10], Satler V.V. [11] esa korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy xavfsizligini ta‘minlash, xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar alohida yo‘nalish sifatida shakllangan. Ushbu doirada qator rus va mintaqaviy olimlar tomonidan iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari, korporativ himoya tizimlari hamda tahliliy-axborot mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqilgan. Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda raqobat razvedkasining tashkiliy-uslubiy jihatlarini, axborot to‘plash va qayta ishlash jarayonlari, shuningdek, strategik monitoring usullari ham yoritilgan.

Mahalliy olimlar — Burxanov A.U. [12], Abulqosimov X.P. [13], Pardayev M.K., Aminov Z.Yu. [14] va boshqalar — sanoat korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirish masalalarini tadqiq qilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, raqobat razvedkasi instrumentlarini sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash mexanizmi sifatida kompleks qo‘llash, shuningdek, uning metodologik va tashkiliy modellarini ishlab chiqish masalalari yetarlicha chuqur o‘rganilmagan.

Shu bois, sanoat korxonalari faoliyatida raqobat razvedkasi vositalaridan tizimli foydalanish, axborot-tahliliy ta‘minotni kuchaytirish va xavf-xatarlarni prognoz qilish imkonini beruvchi ilmiy asoslangan metodologiyani takomillashtirish hozirgi sharoitda dolzarb vazifa sifatida ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, strategik barqarorlikni ta‘minlash va milliy sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma‘lumotlar ilmiy adabiyotlar, xalqaro hisobotlar, statistik bazalar va sanoat korxonalari faoliyatiga oid ochiq manbalar asosida yig‘ildi. Empirik tahlilda qiyosiy va statistik usullar, trend tahlili hamda ekspert baholash yondashuvlari qo‘llanildi. Olingan natijalar tizimli tahlil va iqtisodiy talqin asosida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Yevropa biznes subyektlarida razvedka faoliyatining rasmiylashuvi va institutsionalizatsiya darajasi 2006-yilgi ko‘rsatkichlarga nisbatan keskin oshgan. Tashkiliy tuzilmalar kesimida tahlil qilinganda, respondentlarning 42 foizi markazlashtirilgan bo‘linmalardan, 34 foizi esa markazlashgan va tarqoq funksiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan gibrid modellardan foydalanishni ma‘qul ko‘rganligi aniqlandi. Mazkur o‘zgarishlar razvedka faoliyatining funksional chegaralari kengayib, texnologik va bozor konyunkturasidagi o‘zgarishlarni qamrab oluvchi kompleks tizimga aylanganini dalillaydi. O‘n yillik dinamika doimiy asosda faoliyat yurituvchi CI mutaxassislarini shtati va ixtisoslashgan departamentlarga ega kompaniyalar salmog‘ining ortib borayotganini ko‘rsatib, sohaning professionallashtirish darajasi yuksalganidan darak beradi.

Quyida keltirilgan diagramma raqobat razvedkasi (CI) funksiyasining institutlashuvi bo‘yicha ikki bosqichli — 2006 va 2016-yillar statistik ma‘lumotlarini vizual tarzda ifodalaydi. Ushbu vizualizatsiya yillar o‘tishi bilan CI bo‘limi tuzilmasi qanchalik tartibli va rasmiy bosqichga o‘tganini, korporativ funksiyalar ichida mas‘uliyat darajasining qanchalik oshganini ko‘rsatadi. Bu grafik tadqiqot natijalari asosida CI institutlashuvi yo‘nalishlarining evolyutsiyasini empirik asosda tasdiqlaydi. Ushbu diagramma tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqobat razvedkasi institutsional tuzilma sifatida tizimli integratsiyalangan, markazlashgan va gibrid tuzilmalar yuksalgan, norasmiy amaliyotlar esa sezilarli darajada kamaygan. Bu dinamik o‘zgarish yig‘ilgan ilmiy ma‘lumotlar va strategik boshqaruv talablarining murakkablashuvi natijasidir hamda global biznes muhitida CI rollarining strategik ahamiyatini mustahkamlaydi (1-rasm).



1-rasm. Global tashkilotlarda CI qabul qilinishi va ta'siri bo'yicha statistik ko'rsatkichlar [15]

Quyidagi statistik diagramma global korxonalar orasida raqobat razvedkasi amaliyotining qabul qilinishi hamda uni strategik qarorlar tizimiga integratsiya qilish samaradorligi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni yoritadi. Ushbu ko'rsatkichlar CI funksiyasining korporativ qarorlar qabul qilish jarayonlariga qanchalik chuqur integratsiya qilinganini, raqamli vositalar va OSINT vositalaridan foydalanish hajmini, shuningdek, strategik qarorlar tezligi va bozor tizimiga moslashuvchanlik ustuvorligini aniqlaydi.

Ushbu diagramma tahlilidan ko'rinib turibdiki, raqobat razvedkasini samarali joriy etgan korxonalar qariyb 70 % holatlarda strategik qarorlar qabul qilishda ushbu tizimdan foyda ko'radi, shuningdek, 50 % dan ortiq tashkilotlarda CI uchun alohida funksiyalar joriy qilingan. Bu korxonalarda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan razvedka amaliyotlari bozor sharoitlariga tez moslashish va raqobat ustunligini mustahkamlash imkonini beradi.

Ushbu tendensiyani N. Sewdass va boshqalar o'z tadqiqotlarida chuqur tahlil qilib, zamonaviy CI modelini «ma'lumot yig'ish» bosqichidan rasmiylashtirilgan boshqaruv dissiplinasiga o'tgan «integrallashgan razvedka» sifatida talqin etadilar (2-rasm) [17].



2-rasm. Global CI vositalari bozori hajmi va o'sish tendensiyalari [16]

Mazkur modelning o'ziga xos xususiyatlari sifatida institutsionalizatsiya (tasdiqlangan strategiyalar, etik kodekslar va mas'ul menejerlarning mavjudligi), tahliliy fokusning iqtisodiy, siyosiy va texnologik omillarga siljishi hamda jarayon yetukligi (process maturity) e'tirof etiladi. E'tiborli jihati shundaki, zamonaviy G'arb modelida vaqt resurslarining atigi 29 foizi birlamchi axborotni to'plashga sarflanib, asosiy salohiyat rejalashtirish, murakkab tahliliy jarayonlar (SWOT-tahlil, benchmarking, ssenariylarni modellashtirish) va natijalarni kommunikatsiya qilishga yo'naltiriladi. Bu esa katta hajmdagi axborot oqimini qayta ishlash va prognozli xulosalar chiqarishda inson omili bilan cheklanib qolmasdan, ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish (Data Mining) texnologiyalarini keng joriy etish zaruratini taqozo etadi.

Raqobat razvedkasi tahliliy platformasining konseptual arxitekturasini shakllantirishda xalqaro amaliyotni qiyosiy o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, davlatning innovatsion siyosatdagi ishtiroki va biznes subyektlarining faolligi milliy modellarning o'ziga xosligini belgilab beruvchi asosiy omillardir. Xususan, AQSh tajribasida innovatsion siyosatni realizatsiya qilishda kichik biznes subyektlari salmoqli o'rin tutib, bugungi kunda mamlakatdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D) xarajatlarining yarmidan ko'prog'i aynan xususiy sektor tomonidan moliyalashtirilmoqda. Bu jarayonda "Kichik biznes innovatsion tadqiqotlar dasturi" (SBIR) muhim mexanizm vazifasini o'tab, unga ko'ra federal idoralar o'z budjetlarining belgilangan qismini kichik firmalarning innovatsion loyihalariga grant shaklida yo'naltiradilar. Janubiy Koreya tajribasi esa davlatning innovatsion jarayonlardagi bevosita va faol ishtiroki iqtisodiy o'sishning lokomotivi ekanligini tasdiqlaydi. Koreya modeli AQShdan farqli o'laroq, "pastdan yuqoriga" emas, balki "yuqoridan pastga" tamoyili



asosida shakllangan bo'lib, bunda davlat strategik ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi hamda texnologik parklar va innovatsion klasterlar tarmog'ini yaratish orqali yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportini rag'batlantiradi [18].

Mazkur kontekstda AQSh va Yevropa tajribasini Osiyo va Yaqin Sharq amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilish, yaratilayotgan tahliliy platformaning universalligi va moslashuvchanligini ta'minlashda metodologik ahamiyat kasb etadi. I. Shapira o'z tadqiqotlarida Isroil va AQSh tajribasini solishtirar ekan, G'arb ishbarmonlik muhitida raqobat razvedkasi milliy razvedka funksiyalarining biznesdagi ekvivalenti sifatida qabul qilinishini ta'kidlaydi [19]. AQShda razvedka faoliyati akademik va professional darajada institutsionalashgan bo'lib, SCIP (Strategic and Competitive Intelligence Professionals) [20] kabi professional uyushmalar va maxsus ta'lim dasturlarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu maktabda raqobat razvedkasi (CI) sanoat josusligidan qat'iy farqlanuvchi, qonuniy, ochiq manbalarga va etik me'yorlarga asoslangan faoliyat turi sifatida e'tirof etiladi. Biroq Isroil boshqaruv madaniyatida menejerlar ko'pincha qat'iy reglamentlangan tizimli jarayonlardan ko'ra, vaziyatga qarab qaror qabul qilishga (improvizatsiyaga) moyillik bildiradilar, bu holat mintaqaning madaniy-tarixiy omillari va doimiy xavf ostida yashash ko'nikmasi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, global amaliyotda razvedka — raqobat muhitini anglash va erta ogohlantirish tizimi sifatida korporativ strategiyaning fundamental asosi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqobat razvedkasining zamonaviy modeli ma'lumotlar yig'ish texnologiyalari va inson intellektining gibril integratsiyasiga asoslanishi lozim. Bunda avtomatlashtirilgan tizimlar muntazam ma'lumotlar oqimini (Big Data) qayta ishlasa, ekspertlar guruhi ushbu tahlillarga strategik mazmun bag'ishlaydi. Mahalliy sanoat korxonalarida ushbu modelni joriy etish korporativ xavfsizlik tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda global raqobat sharoitida xo'jalik subyektlarining barqarorligini ta'minlashning hal qiluvchi omili bo'lib xizmat qiladi. Natijada, O'zbekiston korxonalari uchun «xavfsizlik orqali raqobatbardoshlik» tamoyili milliy iqtisodiyotning global miqyosdagi o'rnini mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Talaoui, Y. and Kohtamäki, M. (2020), «35 years of research on business intelligence process: a synthesis of a fragmented literature», Management Research Review, Vol. ahead-of-print No. ahead-ofprint. DOI: <https://doi.org/10.1108/MRR-07-2020-0386>;
2. Nyanga, C., Pansiri, J. and Chatibura, D. (2019), «Enhancing competitiveness in the tourism industry through the use of business intelligence: a literature review» // Journal of Tourism Futures. Vol. 6 No. 2, pp. 139-151. DOI: <https://doi.org/10.1108/JTF-11-2018-0069>;
3. Fahey, L. (2007), «Connecting strategy and competitive intelligence: refocusing intelligence to produce critical strategy inputs», Strategic Direction, Vol. 23 No. 4. DOI: <https://doi.org/10.1108/sd.2007.05623dad.003>;
4. Platt, W. Strategic Intelligence Production. Basic Principles. — New York: Frederic A. Praeger, 1957.
5. Бешмков М.А. «Экономическая безопасность промышленного предприятия в условиях кризисного развития.» Менеджмент в России и за рубежом, 2000, №2, 7–17;
6. Исаева Н.А. «Экономическая безопасность предприятия.» Вестник Екатеринбургского института, 2009; Устинова Л.Н. «Экономическая безопасность предприятия: анализ, структура, модель.» Национальные интересы: приоритеты и безопасность, 2011, №45(138), 67–71;
7. Серебрякова Т.Ю. «Сущность и подходы к определению экономической безопасности предприятий.» Вестник НГУЭУ, 2015; Корелин В.В. «Инструменты обеспечения экономической безопасности промышленного предприятия.» 2016;
8. Доронин А. И. Бизнес-разведка. — М.: Ось-89, 2010. — 704 с.;
9. Лемке Г.Э. Коммерческая разведка для конкурентного превосходства. — М.: Московская Финансово-Промышленная Академия, 2011. — 352 с.;
10. Сатлер В.В. Использование конкурентной разведки для повышения конкурентоспособности предприятия [Электронный ресурс] // Актуальные вопросы экономических наук. — 2009. — С. 170-175.;
11. Бурханов А.У. Молиявий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Иқтисодиёт. 2019, 164 б.;
12. Абулқосимов Х.П. Иқтисодий хавфсизлик. Т.: Академия, 2006, 111 – б.;
13. Пардаев М.К., Аминов З.Ю. Корхонанинг иқтисодий хавфсизлиги ва уни таъминлаш йўллари. Рисола. Самарканд: Зарафшон, 2008.- 47 бет.
14. <https://cdn.ymaws.com/www.scip.org/resource/collection/BCA416ED-B1B6-48A6-9E66-CE003C072E28/Competitive-Intelligence-a-10-Year-Global-Development.pdf>
15. <https://zipdo.co/competitive-intelligence-statistics/>
16. Sewdass, N., & Calof, J. (2020). Contemporary Practices of Intelligence Support for Competitiveness. Foresight and STI Governance. <https://doi.org/10.17323/2500-2597.2020.3.30.39>
17. Sattorova S.B., Сатторова С.Б., & Sattorova S.B. (2022). INNOVATION RIVOJLANISHNING AQSH VA JANUBIY KOREYA MAMLAKATLARI TAJRIBASINING AYRIM JIHATLARI. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE, 1(8), 106–110. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6642847>



18. Shapira, I. (2021). The limited influence of competitive intelligence over corporate strategy in Israel: historical, organizational, conceptual, and cultural explanations. *Intelligence and National Security*, 36(1), 95–115. <https://doi.org/10.1080/02684527.2020.1796338>
19. The Strategic and Competitive Intelligence Professionals (SCIP), www.scip.com and the Council of Competitive Intelligence Fellows, www.cifellows.com.
20. <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/chemicals-global-market-report>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>